XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2023 - yil 17 - may VI-60-60-8-121-K/23 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahar mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag`lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning foydalanilmay, iqtisod qilingan qismini qayta yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom talablari” asosida O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq, Termiz shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O‘.Kuchkinovning hisobotini shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i O‘.Kuchkinovning hisobotini shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlar tomonidan shahar budjetining qo‘shimcha manbalarining foydalanilmay, iqtisod qilingan qismini qayta yo‘naltirish yuzasidan kiritilgan takliflari inobatga olinib, joriy **yil** boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning foydalanilmay, iqtisod qilingan qismi yuzasidan qayta yo‘naltirilish taqsimoti 1-ilovaga muvofiq qayta yo‘naltirilsin.

3. Shahar budjetining qo‘shimcha manbalari shahar budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

4. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Kalandarov), shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Kuchkinov), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi (M.Shaymardanov) mablag‘ oluvchilarning rahbarlari bilan birgalikda:

shahar budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Shahar budjetining qo‘shimcha manbalari shahar budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Kalandarov) va shahar Moliya bo‘limi (O‘.Kuchkinov) shahar mahalliy budjetining **2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan** mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishlari va xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyalarida chorak yakuni bilan hisobot berib borsinlar.

7. Ushbu qarorni ijro etish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Kalandarov), bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Fayzullayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **O‘.I.To‘rayev**

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining
2023 yil 17 maydagi
VI-60-60-8-121-K/23-son qaroriga
1-ilova

Termiz shahar mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning foydalanilmagan iqtisod qilingan qismini qayta yo‘naltirilish

T A Q S I M O T I

(ming so‘mda)

T/r	Manbasi	Kengash qarori raqami	Sanasi	Tashkilot nomi	Mablag‘ yo‘naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag‘ miqdori, so‘mda
1	Erkin qoldiq	VI-58-19-8-121-K/23	03.03.2023-yil	Termiz shahar Madaniyat bo‘limiga	Termiz shaharida o‘tkaziladigan tadbirlar va boshqa jarayonlarni keng yoritish xarajatlari uchun	-50 000,0
2	Erkin qoldiq	VI-58-19-8-121-K/23	03.03.2023-yil	Termiz shahar Madaniyat bo‘limiga	Termiz shaharida navro‘z bayramini ko‘taringki ruhda o‘tkazish maqsadida Termiz shahar madaniyat bo‘limiga o‘tkaziladigan tadbirlar va boshqa jarayonlarni keng yoritish xarajatlari uchun	-100 000,0

3	Erkin qoldiq	VI-58-19-8-121-K/23	03.03.2023-yil	Termiz shahar hokimligi huzuridagi San’at saroyi hududini obodonlashtirish, “Xotira maydoni” yodgorlik kompleksi va Alpomish haykaliga tutash hududlarini ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish va saqlash departamentiga	Termiz shahrining markaziy ko‘chalarini obodonlashtirish maqsadida mavsumiy gul ko‘chatlarini sotib olish uchun	150 000,0
Jami:					**xxx**	**0,0**